

BAXT VA OILAVIY QADRIYATLAR MOTIVI (A.QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI MISOLIDA)

Ixtiyorova Madinabonu Abdusalom qizi

O‘qituvchi

Hasanov Izzatillo Ne‘matjon o‘g‘li

*Davolash ishi 2-kurs talabasi Farg‘ona jamoat
salomatligi tibbiyot instituti, O‘zbekiston, Farg‘ona*

Annotatsiya: *Maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida baxt tushunchasi va oilaviy qadriyatlar motivi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Otabek va Kumush obrazlari misolida muhabbat, sadoqat, oila mustahkamligi, qadriyatlar tizimi, urf-odatlarining inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Majburiy nikoh, ayolning oilaviy-madaniy maqomi hamda qadriyatlarning o‘zgarishi romandagi ijtimoiy-didaktik mazmun orqali yoritiladi. Tadqiqot natijalari asarning bugungi zamon uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etishini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *baxt, oila, qadriyat, sadoqat.*

Аннотация: *В статье проводится научный анализ понятия счастья и семейных ценностей в романе Абдуллы Кадыри «Минувшие дни». На примере образов Отабека и Кумуш раскрываются темы любви, верности, семейной стабильности и влияние традиций на жизнь человека. Рассматриваются вопросы принудительного брака и социального положения женщины. Выводы подтверждают актуальность романа в современных условиях.*

Ключевые слова: *счастье, семейные ценности, верность.*

Abstract: *The article analyzes the concept of happiness and family values in Abdulla Qodiriy’s novel O‘tkan kunlar. Through the characters Otabek and Kumush, the study highlights themes such as love, loyalty, family stability, and the influence of traditions on human life. Issues such as forced marriage and the social role of women are examined. The findings show that the novel retains its socio-educational value in contemporary society.*

Keywords: *happiness, family values, loyalty.*

KIRISH

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek adabiyotida ilk tarixiy roman sifatida nafaqat milliy o‘zlikni anglash, balki oila institutining jamiyatlardagi o‘rnini ko‘rsatishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekoilasining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-madaniy qiyofasi, qadriyatlari, turmush tarzi, majburiy nikohlar, ayollarning jamiyatlardagi mavqei kabi masalalar romanda o‘ta ta’sirchan tarzda ochib berilgan. Baxt va oila motivi asarning g‘oyaviy asosini tashkil etadi. Asar tahlilida qiyosiy-tarixiy va konseptual metodlardan foydalanildi.

ASOSIY QISM

"XX asr o'zbek adabiyotining yorqin yulduzi, o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi Abdulla Qodiriyning adabiy merosi nafaqat qardosh xalqlar, balki dunyo

kitobxonlarining ham e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Adibning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari o'zbek nasrining gultoji hisoblanadi"[1.18].

"O'tkan kunlar" asarining markazida Otabek va Kumush obrazi turadi. Ular o'z davrining eng yorqin va sadoqatli qahramonlari. Otabek zamonaviy fikrlaydigan, halol, vijdonli yigit. U o'z hayotini muhabbatsiz o'tkazishni istamaydi, oilasini sevgi asosida qurishni orzu qiladi.

Kumush esa nafis, mehribon, sabrli va sadoqatli ayol. U o'z sevgisini oxirigacha himoya qiladi, eriga nisbatan mehrini yo'qotmaydi. Ularning muhabbat yo'li oson kechmaydi, zero —ularga hasad, g'iybat, eski urf-odatlar to'g'anoqlik qiladi. Garchi asar yakunida Kumushning hayoti ijobiy tarzda yakun topmagan bo'lsada, ularning o'rtasidagi munosabat xali-hanuz chin sevgi timsoli sifatida bugungi kunda ham qadrlanadi. Qodiriy bu ikki obraz orqali kitobxonga oila faqat pul yoki ota-onaning qistovi bilan emas, o'zaro sevgi va hurmat asosida qurilishi kerakligi haqida ta'kidlaydi. Zero, aynan shu asnoda qurilganoila mustahkam bo'ladi va insonni haqiqiy baxtga yetaklaydi. Asarda oila hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar ham ko'p. Masalan, Otabekning onasi Oftob oyim o'g'lining o'z sevgilisi bilan emas, balki o'zi tanlagan qiz bilan turmush qurishini xohlaydi. Vaholanki, o'sha paytda ota-onaning so'zi qonun sanalganligi bois, yoshlar o'z fikrini ayta olmasdi.

"Uylanishdagi ixtiyorimiz, - dedi Rahmat, - ota-onalarimizda bo'lg'anliqdan, oladig'an kelinlari o'g'illarig'a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlariga yoqsa bas. Bu to'g'rida uylanguchi yigit bilan er qilg'uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz ma'qul va mashru' ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... ammo xotinim ota-onamga muvofiq bo'lsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol men ham xotinimg'a muvofiq emasdirman... So'zingiz juda to'g'ri, bek aka" [2.11].

Abdulla Qodiriy asari orqali o'sha davr jamiyatidagi ko'plab muammolarni ochib beradi: majburiy nikohlar, ayolning fikriga e'tibor berilmasligi, oilaning "nomus" uchun emas, balki urf uchun qurilishi. Natijada baxtsizliklar, adolatsizliklar yuz beradi. Yozuvchi bu muammolarni tanqid qilib, oila hayotida mehr, o'zaro ishonch va erkinlik bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shunda inson baxtli yashaydi, oila esa mustahkam bo'ladi.

Asarda baxt tushunchasi juda chuqur talqin qilingan. Qodiriy uchun baxt — bu boylik yoki mansab emas. Baxt — bu insonning qalbidagi tinchlik, oila bag'ridagi muhabbat, yaqin insonlar bilan o'tgan samimiy hayotdir.

Otabek uchun baxt — Kumush bilan birga yashash, u bilan hayot yo'lini bosib o'tish edi. Kumush uchun esa baxt — Otabekni sevis, unga sadoqatli bo'lish. Shuning uchun ham ular bir-birini yo'qotganda, hayot ma'nosiz bo'lib qoladi. Bu holat bugungi kunda ham dolzarb: ko'p odamlar boylik yoki mashhurlikni baxt deb biladi, lekin Qodiriy asari bizga eslatadi — haqiqiy baxt qalbda, oilada, mehrda.

Roman orqali o'zbek xalqining turmush tarzi va urf-odatlari muallif tomonidan keng ochib berilgan. Masalan Otabek bilan Kumushning unashtirilishi, ikki yosh o'rtasida rishtalar bog'lanishi, sovchi yuborish, qizni oilasiga bo'lgan hurmat, ota-

onasidan fотиha olishkabi misollarda har bir qadriyatlarimiz zamiridagi asl ma'nos ko'rinadi. Qolaversa, qadriyatlar haqida so'z yuritar ekanmiz, o'zbek xalqining to'y marosimlari ham yodga keladi. O'zbek xalqi o'zining mehmondo'stligi va bag'rikengligi bilan dunyo millatlaridan ajralib turadi. To'y marosimlarini eslaganda mezbonning xalqqa dasturxon yozishi, ularni mehmon qilish orqali o'z xursandchiliklarini boshqalar bilan bo'lishishi va insonlar o'rtasidagi mehr-oqibatni mustahkamlashga qaratilganligini sezish mumkin. Odamlar o'sha paytda to'ylarni katta ehtirom bilan o'tkazishgan, duolar o'qilgan, kattalar so'zi ustuvor bo'lgan va ushbu urf-odatlar haligacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Kumush vafot etganda janoza marosimi bo'lib o'tadi. Odamlar yig'ilishadi, duo o'qishadi, marhumni ehtirom bilan dafn etishadi. Bu esa xalq orasidagi diniy e'tiqod va marhumga hurmat qadriyatini ko'rsatadi.

"Ertasi kun dafn marosimi bo'ldi. Janozag'a Toshkandning har bir mahallasidan deyarlik kishilar ishtirok qildi. Faqat maqtulaning eng yaqinlarig'ina bu tantanaga yetib kelalmadilar. Bechora ona, bechora ota!.. Uchunchi kun ular ham kelib yetdilar... Ularning hozirgi holini tasvir etish mumkinmi?! Yettinchi kun xatmi qur'on qilinib xalqg'a osh berildi va shu munosabat bilan chaqaloqqa "Yodgorbek" deb ism qo'yildi".[2.207]

Yozuvchi oilani shunchaki shaxsiy hayot emas, balki jamiyatning poydevori sifatida ko'rsatadi. Agar oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham tinch, xalq ham baxtli bo'ladi. Asarda oilaviy qadriyatlarga hurmat, ota-onaga ehtirom, er-xotin o'rtasidagi ishonch kabi fazilatlar yuksak qadrlanadi. Otabek va Kumush o'z muhabbati orqali jamiyatdagi qadriyatlarni yangilaydi. Ular eski urf-odatlarga qarshi turib, yangi davr — inson erkinligi, ayol hurmati, sadoqat davrining boshlanishini bildiradi.

XULOSA

"O'tkan kunlar" asari yozilganiga bir asrdan oshgan bo'lsa ham, undagi g'oyalar bugun ham dolzarb. Zamonaviy hayotda ham oilaviy qadriyatlar muhim. Odamlar orasida mehr-oqibat, hurmat, kechirimlilik kamayib borayotgan bir paytda, Qodiriyning asari bizni yana o'sha qadriyatlarga qaytaradi. Bugungi yoshlar Otabek va Kumush kabi bo'lishga, o'z oilasini sevgi, ishonch va sadoqat asosida qurishga harakat qilsa, jamiyat yanada baxtli bo'ladi.

Shuning uchun "O'tkan kunlar" faqat bir sevgi hikoyasi emas, balki insoniylik va oilaviy baxt haqidagi darslikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. O'zbekiston. Toshkent: 1996, 2-jild.
2. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Sharq. Toshkent:2012, 384 bet.
3. Qosimov, K. (2023). ABDULLA QODIRIY–XX ASR GENIYSI. Farg'ona davlat universiteti, (1), 162-162.

4. Kosimov, K. (2022). АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ ДИНИЙ ВА ТАСАВВУФИЙ ҚАРАШЛАРИ. Science and innovation, 1(B5), 453-459.
5. QOSIMOV, K. (2024). ABDULLA QODIRIY SHAXSI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-TARIXIY OMILLARI. «АСТА NUUZ», 1(1.6. 1), 127-129.
6. Madinabonu, I. (2025). THE EMERGENCE OF THE MOTIF OF HAPPINESS IN LITERARY FICTION. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE, 3(10), 159-163.
7. Ixtiyorova, M. (2023). ULUG'BEK HAMDAMNING "UZOQDAGI DILNURA" HIKOYASIDA PSIXOLOGIZM TALQINI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).
8. Ихтиёрова, М. (2025). ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ СЧАСТЬЯ В НАРОДНОМ УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(40), 452-455.
9. Karimov, U. U. (2021). Scientific and Theoretical Foundations of the Formation of the Social Environment in the Family. Oriental Journal of Social Sciences, 1(1), 37-40.